



FRANCE



FRANCE

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA KELAJAK BUNYODKORI – UCHINCHI RENESSANS

Tursoatova Shahrizoda Baxtiyor qizi

Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi

101-maktab 11-sinf o'quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10070832>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini bonyod etishda insonlar ma'naviy immunitetini, axloqiy sifatlarini, ma'naviy taraqqiyotni rivojlantirishga va bunda ma'naviy merosimizdan samarali foydalanish bilan bog'liq ijtimoiy jarayonlar xususida so'z boradi. Shuningdek, mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida amalga oshirilayotgan islohotlarga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy immunitet, ma'naviy taraqqiyot, ma'naviy meros, axloqiy sifatlar, inson qadri, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar.

Аннотация: В данной статье говорится о социальных процессах, связанных с развитием у людей духовного иммунитета, нравственных качеств, духовного развития и эффективного использования нашего духовного наследия в построении основ Третьего Возрождения в Новом Узбекистане. Были также затронуты реформы, осуществляемые в общественно-политической жизни нашей страны.

Ключевые слова: духовный иммунитет, духовное развитие, духовное наследие, нравственные качества, человеческое достоинство, духовно-нравственные ценности.

Abstract: This article talks about the social processes related to the development of people's spiritual immunity, moral qualities, spiritual development and the effective use of our spiritual heritage in building the foundations of the Third Renaissance in New Uzbekistan. The reforms implemented in the social and political life of our country were also touched upon.

Key words: spiritual immunity, spiritual development, spiritual heritage, moral qualities, human dignity, spiritual and moral values.

Jahon sivilizatsiyasining har bir bosqichida insoniyatni ma'naviy va axloqiy kamolotiga erishish masalasi dolzarb hisoblangan. Ma'naviy tahdidlar, axloqiy buzilishlar global miqyosda kuchayib borayotgan taraqqiyotning bugungi bosqichida ham insonlar ma'naviy immunitetini, axloqiy sifatlarini, ma'naviy taraqqiyotni rivojlantirishga va bunda ma'naviy merosimizdan samarali foydalanishga zarurat sezilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan,





Uchinchi Renessans poydevorini yaratish va bunda ma'naviy taraqqiyot, ilm-fanni rivojlantirish, inson qadrini ulug'lash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ma'naviy taraqqiyotni yuksaltirish bevosita ma'naviy merosimizni qadrlash va yoshlarda milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhini shakllantirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali yo'lga qo'yish orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy jarayonlardan hisoblanadi. Chunki ma'naviy taraqqiyotga intilish inson ma'naviy-axloqiy kamolotiga erishishning har qanday ijtimoiy makon va zamon uchun universal bo'lgan mezonlari mavjud bo'lib, ularni bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil etish hamda amaliyotda foydalanishni yangi bosqichga ko'tarish yuqorida muammolar yechimida muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugun biz intilayotgan Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish – bu shunchaki orzu emas. Bu aniq strategik maqsad va umumxalq harakatiga aylanib borayotgan beqiyos amaliy jarayondir".

Kundan-kunga shiddat bilan rivojlanayotgan tarqqiyotning hozirgi zamon bosqichida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni e'zozlash, tarixiy merosni asrash va milliy an'analarni tiklash, qadrlash kabi masalalar bilan bog'liq muammolar butun dunyo afkor ommasining e'tibor markazida turibdi. Bugungi kunda inson ma'naviyati va axloqiy kamolotini yuksaltirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri yoshlarmizni sog'lom fikrli, sog'lom e'tiqodli, ma'rifatli va bilimli qilib tarbiyalashga qaratilgan. Bu borada 2016 yilning 12 avgustida qabul qilingan, 2016 yilning 24 avgustida Senat tomonidan ma'qullangan va 2016 yilning 14 sentyabridan kuchga kirgan "Yoshlarga oid dalat siyosati to'g'risida"gi, 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020 yil 6 noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari hamda 2018 yil 12 maydagi PQ-3721-son "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlарini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlarining ijrosi bo'yicha bir qator chora-tadbirlar rejasidir ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda.



FRANCE

FRANCE

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 12 yanvarda "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi imzolandi. Bu esa xalqimizda, ayniqsa, yoshlarimiz orasida kitob mutolaasini, kitobga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. "O'qish-o'rganish, doimiy izlanish, yangilikka, taraqqiyotga intilib yashash har birimizga doimo hamroh bo'lishi kerak. Nega deganda, buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib aytganidek: "Dunyoda ikki turli inson haqiqiy insonsanaladi: biri – o'rgatuvchi, biri – o'rganuvchi", – deya ta'kidlagan edi Prezidentimiz.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va Uchinchi Renessans ostonasida ma'naviy taraqqiyotni yuksaltirishda o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalamoq bugungi kunning ob'ektiv zaruratiga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, qadriyatlar tushunchasini o'rganish va tahlil etish barcha zamonlarda dolzarb mavzulardan hisoblangan. Qadriyatlar ichida eng qadrlisi-baxtli yashashimizga zavqlanishimizni keltiradigan, yaxshilik qilishimizga yordam beradiganidir, degan edi antik davr falsafasining buyuk namoyandalaridan biri Arastu. "Muallimi soniy" nomi bilan Sharqda dong taratgan alloma Abu Nasr Forobiy esa qadriyatlar xususida fikr yuritib, shunday deydi: "...agar bu jarayon birlik-birdamlikni idrok etishiga olib keladigan bo'lsa, u holda turli hayot tarzidagi odamlarni, katta, obro'li oilalarning tabarruk yoshdagi otalar va farzandlarni farog'at keltiradigan qonunlar yaratishga majbur etadi" I.Saifnazarov esa qadriyatlar tushunchasiga shunday ta'rif bergan: "Milliy-ma'naviy qadriyatlar – murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, udumlari, jamiki ma'naviy boyliklarini qamrab oladi". Yuqorida keltirilgan ta'riflardan kelib chiqib aytish mumkinki, qadriyatlar shaxs, jamiyat va millat taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan zaruriy tushunchadir. Shuningdek, o'tmishdagi turli millat va xalqlarning ma'naviy-madaniy hamda axloqiy tamoyillarga bo'lgan ehtiyoji natijasida paydo bo'lgan, bugungi kunda esa insonlarning maqsadlari, manfaatlari uchun zarur omil hisoblanadigan moddiy hamda ma'naviy boyliklar tizimi hisoblanadi. Mohiyatan, mavjud barcha qadriyatlar inson faoliyati va ongingin mahsuli, uning ob'ektiv borliqqa bo'lgan munosabatining yorqin ifodasidir. Qadriyatlar insoniyatning ma'naviyatga, madaniyatga, ma'rifatga va axloqiy kamolotga bo'lgan tashnaligini, ehtiyojini qondiruvchi zaruriy vosita hamdir. Chunki insonda umuminsoniy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga bo'lgan hurmat hissi uni ma'naviyatli, mafifatli va



FRANCE

MODELS AND METHODS IN MODERN SCIENCE

International scientific-online conference



FRANCE

madaniyatli shaxsga aylantirishi shubhasiz. Zero, inson o'zligini, o'z fitratini va mohiyatini teran anglamog'ida qadriyatlar tizimining o'rni beqiyosdir. Aynan mana shunday omillar Uchinchi Renessans poydevorini yaratishimizda ma'naviy taraqqiyotning kontseptual ahamiyatini tashkil etadi.

Foydalanimagan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – B.19.
2. Arsatu. Axloqi kabir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015. – B.254.
3. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. –B.28-29.
4. Saifnazarov I., Saifnazarova F. Ma'naviyatimizning umrboqiy sarchashmalar. –T.:Mehnat, 1997. – B.10.

